

**SHARQ ALLOMASI ABU NASIR FOROBIYNING JAMIYAT HAQIDAGI
QARASHLARI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika
institutin Pedagogika fakulteti
Jismoni Madaniyat ta'lim yunalishi
Normamatov Jaloliddin Toshmamatovich*

Annotasiya: Ilk uygʻonish davrining buyuk namoyondasi sifatida Forobiyning iqtisodiy qarashlari katta ahamiyatga ega. Jamiyat, davlatning vujudga kelishi, uning vazifalari hozirgi zamon nuqtai nazaridan nihoyatda toʻgʻridir. Forobiy fikricha, adolat asosiga oʻrnatilgan jamiyatgina insonlar talabiga mos keladi.

Annontation: As a great representative of the early renaissance, Farobi's economic views are of great importance. The emergence of society, the state, its tasks are extremely correct from the point of view of the present time. According to Farobi, only a society based on justice meets the needs of people.

Аннотация: Экономические взгляды Фароби как великого представителя раннего Возрождения имеют большое значение. Возникновение общества, государства, его задачи чрезвычайно правильны с точки зрения настоящего времени. По мнению Фароби, только общество, основанное на справедливости, удовлетворяет потребности людей.

Kalit suzlar: samoviy jismlar, aflatunchilik, mantiq, falsafa, faollik, aql, ruh, shakl.

Abu Nasr Forobiyning jamiyat toʻgʻrisidagi qarashlari.

Abu Nasr Farobiy oʻrta asrlar sharoitida birinchi boʻlib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil taʼlimot yaratgan. Bu taʼlimotda ijtimoiy hayotning koʻplab masalalari yaʼni davlatni boshqarish, taʼlim-tarbiya ahloq, maʼrifat, urush va tinchlik muammolari qamrab olingan. “Madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday boʻladiki, shu mamlakatning aholisidan boʻlgan har bir odam kasb - hunarda ozod, hammaga baravar boʻladi, kishilar oʻrtasida farq boʻlmaydi, har kim oʻzi ozod boʻladilar” - kabi fikrlari Farobiyning jamiyat hayotini chuqur tahlil qilganligidan dalolat beradi. Abu Nasr Farobiy oʻzining “Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob”, “Siyosat al - madaniya” kabi asarlarida oliyjanob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqida oʻz fikr va mulohazalarini bayon qilgan. U oʻzi yashagan davrning ijtimoiy tizimini, uning ziddiyatlari va bu ziddiyatlarning kelib chiqishidagi muammolarni nazariy jihatdan tahlil qilishga uringan.

Forobiy fikricha, yagona borliq olti bosqichdan iborat boʻlib, ular ayni bir vaqtda barcha mavjud narsalarning ibtidosi sifatida bir-birlari bilan sababiy bogʻlanishdadirlar. Birinchi bosqich – birinchi sabab (Xudo); ikkinchisi – samoviy

jismlar borlig'i; uchinchi – faol aql, to'rtinchi – ruh; beshinchi – shakl; oltinchi – modda. SHunday qilib, xudo va modda, yagona bir butunni tashkil etib, bir qator bosqichlar orqali bir-birlari bilan sababiy bog'lanishdadir. O'zlarining sababiy bog'lanishlari tufayli ushbu ibtidolar ikki ko'rinishga ajratiladilar: «vojibul vujud» - shunday narsaki, mavjudligi o'zidan kelib chiqadi; «mumkinul vujud» - shunday narsaki, uning mavjudligi boshqa narsadan kelib chiqadi. «Mumkinul vujud» o'zining bor bo'lishi uchun sababga ehtiyoj sezadi, va qachonki u paydo bo'lsa, boshqa narsa tufayli, «vojibul vujud» ga aylanadi. Forobiyning ibtidolar haqidagi ta'limoti shundan guvohlik beradiki, unga yangi afltunchilikning emanatsiya nazariyasi ta'sir o'tkazgan bo'lib, u ilk islom e'tiqodidagilarning nuqtai nazarlaridan mohiyatan farq qiladi.

Birinchi sabab (vojibul vujud) abadiylik xususiyatiga ega bo'lganligidan, modda ham, uning oqibati sifatida abadiylikka daxldor bo'ladi. Erdagi va osmondagi doiralarning barchasi jismiylik (moddiylik) xususiyatiga egadirlar. Barcha narsalar olti ko'rinishga bo'linadilar: samoviy jismlar, aqlli hayvon (inson), aqlga ega bo'lmagan hayvonlar, o'simliklar, minerallar, to'rt unsur-olov, havo, tuproq va suv. Oxirgilari moddiylikning asosi bo'lib, moddaning eng oddiy ko'rinishini ifodalaydilar. Qolgan besh turdagisi murakkab bo'lib, ushbu birlamchi unsurlarning turli darajadagi qo'shilishlari natijasida paydo bo'ladilar. Forobiy fikricha, «barcha ashyollarning umumiy turi dunyo» bo'lib, oddiy jismlardan tashkil topgan va «dunyodan tashqarida hech narsa yo'q.

Har qanday jism, avvalo imkoniyatda mavjud bo'ladi va undan keyingina voqeylikka aylanadi. Imkoniyatdan voqeylikka o'tish moddaning muayyan shakl bilan qo'shilishi natijasida sodir bo'ladi. Forobiyning qarama-qarshiliklar va ularning qarama-qarshi shakllarining bir-birlari bilan to'qnashishi haqidagi fikrlari, tabiatdagi o'zgarishlarni tushunish manbai sifatidagi urinishga qaratilgan bo'lganligidan, juda ham qimmatlidir.

Forobiy mantiqiy tizim kulliyotning asoschisi bo'lib, u tufayli alohida unvon bo'lgan «al-Mantiqiy» laqabini olgan. U Arastuning mantik sohasidagi barcha asarlariga sharhlar yozgan. Bundan tashqari, uning o'zi ham mantiq bo'yicha ko'plab asarlarning muallifidir. Forobiy mantiqda ilmiy bilimning usulini ko'rdi. Mantiq fikriy jarayonning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlash uchun xizmat qiladi va kategoriyalar, ya'ni aql bilan tushuniladigan mohiyatlar bilan ish ko'radi. «Mantiq, - deb yozadi Forobiy, - qachonki falsafaning u yoki bu qismlarida qo'llanilsa, mohiyat jihatidan qurol bo'lib, uning yordamida nazariy san'at nimani qamrab olgan bo'lsa, o'shalarning barchasi haqida ishonchli bilimlarga erishtiradi». Forobiy falsafasining inkor etib bo'lmaydigan joyi shundaki, u nazariy falsafani haqiqiy va asosiy ilm, deb bilib, qolgan barcha fanlarni unga tobe bo'lgan ikkinchi darajali sohalar maqomiga qo'ydi. Falsafalar o'rtasidagi umumiy dunyoqarashlar bilan kifoyalanmay, din bilan falsafani ham ayrim bir qismga joyladi. Uning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini

payg‘ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar, zero, mohiyat jihatidan falsafa bilan din o‘rtasida hech qanday tafovut yo‘q. Bunday karash o‘z davrida nihoyat darajada muvaffaqiyat qozonib, islomiy falsafaning asosi va usulini belgilab beruvchi fikrlash tarziga aylandi. Forobiyning ta‘limoti Sharqda va Evropada ijtimoiy-falsafiy fikrlarning bundan keyingi rivojida muhim o‘rin tutdi. U Basradan chiqqan falsafiy to‘garak bo‘lgan «Ixvon as-safo» («Sof birodarlar») a‘zolari va Abu Sulaymon Mantiqiy, Ibn Miskaveyh, Ibn Bajja, Ibn Tufayl, Maymonid qarashlariga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Buyuk olim Ibn Sino uni o‘zining ustozlari deb hisoblar edi.

Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi ijtimoiy qarashlar

Birinchi mavjud boshqa barcha mavjudod borligining birinchi sababidir. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli tuman kamchiliklarning barchasidan ozod-pokdir. Undan boshqa barcha mavjud narsa nuqsonlik bo‘lishi holatidan holi emas. (Nuqson) bir bo‘lishi mumkin va yoki birdan ko‘p bolishligi mumkin. Forobiy mantiqiy istilohlarni (atamalarni) ishlab chiqishga ham katta hissa qo‘shdi. U mantik bilan grammatika, mantiqiy fikr va uning nutqiy ifodasi o‘rtasida aloqa topishga harakat qildi. Masalan, mantiq ob‘ektini belgilab, u quyidagilarni ko‘rsatadi: 1) Iste‘dodga ega bo‘lish va uning yordamida inson tushunchalar orqali fikrlaydi, fan va san‘atni egallaydi; 2) inson ruhida paydo bo‘lgan va ichki nutq deb ataluvchi kategoriyalar; 3) aqlida paydo bo‘lgan ifoda – buni tashqi nutq deb ataydilar. Forobiyning mantiq bilan grammatikaning o‘zaro aloqasi haqidagi talqini hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan.

Xulosa: Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, dunyo fani va madaniyati, uyg‘onish davrining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri bo‘lgan Forobiy qadimgi yunon fani va madaniyatining insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o‘rnini yuksak baholab, butun ilmiy faoliyati davomida nafaqat unga suyandi, cheksiz hayratlandi va ilhomlandi, balki kishilik tarixida o‘chmas iz qoldirgan yunon olimlarining, ko‘proq Arastuning asarlarini targ‘ib qildi, ularning ko‘plarini arab tiliga tarjima qildi. Antik dunyo olimlarining qoldirgan meroslarini to‘la o‘rganmasdan turib, fan va madaniyatni rivojlantirish mumkin emasligini yaxshi tushungan Abu Nasr Forobiy yunon mutafakkirlarining “qul”iga aylanib qolmadi, baliki ko‘p qirrali olim va ijodkorlarning davomchisi, o‘z davri sharoitida mustaqil fikr yurituvchi alloma sifatida o‘zini namoyon qildi.

Ishlatilgan adabiyotlar:

1. Ma‘naviyat yulduzlari, T., 1999.
2. Mo‘minov I. M., O‘zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. T., 1999;
3. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan, T., 1995;
4. Sotsialnoutopicheskiye idei v Sredney Azii, T., 1983;
5. Xayrullayev M. M., Abu Nasr Forobiy, T., 1966;
6. Xayrullayev M. M., Farabi. Epoxa i ucheniye, T., 1975;

7. Xayrullayev M. M., Forobiy va uning falsafiy risolalari, T., 1963;
8. Xayrullayev M. M., Mirovozreniye Farabi i yego znachenije v istorii filosofii, T., 1967;
9. Xayrullayev M. M., O‘rta Osiyoda ilk uygonish davri madaniyati, T., 1994;
10. Xayrullayev M. M., Uyg‘onish davri va Shark mutafakkiri, T., 1971;

